




## BUYUK SIYMO



*Denov tadbirkorlik va pedagogika  
Instituti boshlang'ich ta'lrim yo'nalishi  
bosqich talabasi Qayumova Ibodat  
Tel: +998888406204*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk mutafakkirimiz Mir Alisher Navoiyning hayot davomida qilgan ishlari, bizga meros qilih qoldirgan asarlari borasida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar :** barhayot siymo, porloq quyosh kabi , “ Panj Ganj “, mazmundorlik, badiiylik, turkiy til .

Besh asrkim nazmiy saroyni,  
Titratadi zanjirband bir sher.  
Temur tig'i yetmagan joyni,  
Qalam bilan oldi Alisher.

Darhaqiqatdan ham , bu “ zanjirband sher “ ning necha asrlardan beri jahonni maftun etib kelayotgan g'azallari porloq quyosh kabitidir. Uning betakror nazmi oldida hatto Sa'diy va Hofizning she'riyat osmonidagi yulduzlari xira tortadi. “ Nizomiy panjasiga panja” urib, bunyod qilgan “ Xamsa “ si “ Panj Ganj” shuhratiga soya soldi. Forsigo'ylar uning turkiy tilda yozganligidan shukronalar aytdilar. Chunki Navoiyning asarlari shunaqangi ko'taringki ruh bilan yozilar ediki, uning asarlari har bir o'qigan kitobxonning ko'nglida o'zgacha joy olib, muhrlanib qoladi. Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning kuni kecha 582 yilligi arafasi bilan tadbir tashkil qilinib, navoiyxonlik kechasi o'tkazildi. Bu ham Navoiyga bo'lgan cheksiz mehr - u muhabbatimizning bir nishonidir. Yashab, ijod qilganlariga 582 yil bo'lsa ham hamon ul zotga hurmatimiz cheksiz, uni doim eslaymiz, yozgan g'azallari-yu asarlarini sevib mutolaa qilamiz. Uning g'azallarini yoq olib, o'zgacha kechalar uyushtiramiz. Hech ham o'zingizga savol berib ko'rghanmisiz ?.” Nega, biz Navoiyni hanuzgacha eslaymiz?”. To'g'ri bu savol hammada tug'iladi. Chunki, Navoiy shunchalik buyuk zot bo'lganki, hatto u o'z zamonasining dahosiga aylangan.Alisher Navoiy asarlari o'zining badiyligi va go'zalligi bilan Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy asarlaridan ustun turar edi. Shuning uchun ham uning ustozи, forstojik adabiyotining ulkan namoyondasi Abdurahmon Jomiy Alisher Navoiy ijodi xususida shunday deb yozgan: “ Shukrlar bo'lsinki, u she'rlarni turkiy tilida ijod qilgan. Agar forsiy tilda ijod qilganda , bizning asarlarimizni hech kim o'qimas edi.”. Ko'ryapsizmi?! Alisher Navoiy turkiy tilda shunaqangi nafis , topilmas, durdona



asarlar yozganki, u insonga beriladigan ta’riflar juda ham ko’p . U bizning ongimizga o’z asarlari bilan singib ketganki, uni o’rganmaslikdan iloj ham yo’q. Alisher Navoiy singari jahonga mashhur shoirlar ruhi hamisha bizni insoniy kamolot sari chorlab turadi. Navoiy o’z asarlarida do’stlikni, insonparvarlikni, mehr- muhabbatni ulug’laganlar. Shoirlilik juda ham ulug’ kasb, Navoiy ham shoir, ham she’riy asarlar yozgan yozuvchi desak mobolag’a bo’lmaydi. Keling Muhammad Yusufning shoirlar haqidagi she’rini yodga olamiz :

Shoirlar kuygan ko’ngillar nolasi,  
G’arib onalarning g’arib bolasi.  
Jami buyuklarning buyugi ular,  
Jami bechoralar ham bechorasi.  
Shoirlar - ohular o’tgan dalasi,  
Dardli ko’ngillarning dardli qafasi.  
Ular goh bir og’iz shirin so’z quli,  
Goh dunyoni olar bir iborasi.  
Ular kulbasidan do’zah bir qadam,  
Jannat ular ikki qoshin orasida.

## A

lisher Navoiyga shoir sifatida qancha ta’rif bersak , baribir ham kamlik qilaveradi. Bizning xalqimiz Navoiyni komil inson deb biladi, uni shunday e’tirof etadi. Alisher Navoiy odobli, ilmli isnon haqida shunday fikr yuritadi . Ya’nikim, “Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir, barcha xalqlar uchun yoqimlidir. Odob kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor qiladi. Yoshlar bu duo barakasidan umrbod bahramand bo’ladilar. “ O’z aytgan gaplari o’ziga monand. O’sib kelayotgan yoshlar Navoiyga munosib voris bo’la oladi degan fikrdamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar :

1. M. Yusuf. “ Bu xush onlar bir tushday o’tdiyu, ketdi... “
2. 5- sinf ona tili darsligi.Toshkent-2020 8-9 sahifa.
3. Alisher Navoiy “ Ibratli hikoyalar “
4. www, wikipedia.uz/